

**O'ZBEKISTONDA BOLALAR SALOMATLIGINI TA'MINLASHDA  
FARMATSEVTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH VA MARKETING  
BOSHQARUVINING INNOVATSION YECHIMLARI**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

**Bazarova Nigina Sobirjonovna**

Farmatsevtika ishini tashkil  
etish kafedrasi mudiri, PhD.

**Olimjonov Qobiljon Olimjon o'g'li**

Magistr 1-kurs

**ANNOTATSIYA** O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholi, ayniqsa, bolalar salomatligini ta'minlashda pediatriya sohasidagi dori vositalarining yetarli miqdorda va yuqori sifatda mavjudligi katta ahamiyatga ega. So'nggi yillarda O'zbekistonda farmatsevtika sanoati rivojlantirilayotgan bo'lsa-da, pediatriyada qo'llaniladigan dori vositalarining aksariyati import qilinadi, bu esa narxlarni oshirish va ta'minotda uzilishlar yuzaga kelishiga olib keladi.

**Kalit so'z:** SWOT-tahlil, aholining 35 foizini, vositalarining 70 foizdan, Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi 20-sonli farmoni.

**Mavzuning dolzarbliji.** Shuningdek, aholining o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga oluvchi marketing tadqiqotlari yetarli darajada olib borilmayapti. Shu sababli pediatriya sohasidagi dori vositalarining ta'minot tizimini takomillashtirish va uni marketing asosida boshqarish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda. Aholi sonining ko'payishi O'zbekistonda pediatriya sohasidagi dori vositalariga bo'lgan talabning yuqoriliginи ko'rsatmoqda. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda bolalar aholisi umumiyligi aholining 35 foizini tashkil etadi. Importga qaramlik hali ham yuqori bo'lib qolmoqda. Hozirda pediatriyada qo'llaniladigan dori

vositalarining 70 foizdan ortig‘i import qilinadi. Bu holat ta’minotdagi uzilishlar xavfini oshirib, narxlarning yuqorilashiga olib kelmoqda. Mahalliy ishlab chiqarish yetarli darajada rivojlanmagan. Pediatriya uchun mo‘ljallangan dori vositalarini ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar soni juda kam. Ko‘pchilik farmatsevtika korxonalari faqat umumiyligida dori vositalarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Dori vositalarining narxi va sifati bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Pediatriya dori vositalari narxlari ko‘plab oilalar uchun yuqori bo‘lib, ayniqsa, chekka hududlarda bu vositalarning yetarli darajada mavjud emasligi bolalar salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

**Mavzuning muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Mazkur tadqiqotning maqsadi pediatriyada bemorlarni dori vositalari bilan ta’minlash tizimini chuqr tahlil qilish va marketing tadqiqotlari asosida samaradorlikni oshirish uchun strategik yechimlar ishlab chiqish. O‘zbekistonda pediatriya dori vositalarining mavjud assortimentini tahlil qilish va ularga bo‘lgan talabni o‘rganish zarur. Shu bilan birga, import va mahalliy ishlab chiqarishdagi pediatrik dori vositalarining o‘zaro nisbatini baholash muhim ahamiyatga ega. Pediatriya bozoridagi asosiy ishtirokchilar, ya’ni davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini chuqr o‘rganish lozim. Shuningdek, pediatriya dori vositalarining ta’minot tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularning sabablarini tadqiq qilish talab etiladi. Marketing tadqiqotlari asosida pediatriya dori vositalari bozorini segmentatsiya qilish va har bir segment uchun mos strategiyalar ishlab chiqish muhimdir. Mahalliy farmatsevtika kompaniyalarining pediatriya bozoridagi ulushini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi ham dolzarb vazifalardan biridir. Tadqiqot davomida bir qator metodlar qo‘llanilgan. Iqtisodiy tahlil yordamida pediatriya dori vositalarining importi va mahalliy ishlab chiqarish hajmlari baholandi. Statistik tahlil orqali aholi salomatligi ko‘rsatkichlari va dori vositalariga bo‘lgan talab o‘rganildi. Marketing tadqiqotlari pediatriya dori vositalarining bozor segmentatsiyasi, iste’molchilar ehtiyojlari, shuningdek, narx va sifat mosligini tahlil qilishga yo‘naltirildi. SWOT-tahlil yordamida pediatriya farmatsevtikasi bozorining kuchli va zaif tomonlari,

imkoniyatlari va xavflari aniqlab chiqildi. Shuningdek, sotsiologik so‘rovlar asosida pediatriya sohasidagi tibbiyot xodimlari, dorixona tarmog‘i vakillari va iste’molchilardan anketalar orqali ma'lumotlar yig‘ildi. O‘zbekiston pediatriya farmatsevtikasi bozorining birinchi marta batafsil segmentatsiyasi amalga oshirildi. Tadqiqot davomida pediatriya dori vositalarining ta’minot tizimidagi asosiy muammolar, xususan, importga qaramlik va ta’minot uzelishlari keng ko‘lamda tahlil qilindi. Mahalliy farmatsevtika ishlab chiqaruvchilarining pediatriya bozoridagi ulushini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalari ishlab chiqildi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimida davlat-xususiy sheriklik asosida pediatrik dori vositalarini ta’minlashga doir yangi model taklif etildi. O‘zbekiston pediatriya farmatsevtikasi bozorining birinchi marta batafsil segmentatsiyasi amalga oshirildi. Tadqiqot davomida pediatriya dori vositalarining ta’minot tizimidagi asosiy muammolar, xususan, importga qaramlik va ta’minot uzelishlari keng ko‘lamda tahlil qilindi. Mahalliy farmatsevtika ishlab chiqaruvchilarining pediatriya bozoridagi ulushini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalari ishlab chiqildi. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimida davlat-xususiy sheriklik asosida pediatrik dori vositalarini ta’minlashga doir yangi model taklif etildi. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistonda pediatriya bemorlarini dori vositalari bilan ta’minlash tizimini takomillashtirishda keng foydalanishi mumkin. Tadqiqot pediatriya bozorida samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish, mahalliy farmatsevtika kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish va importga qaramlikni kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi 20-sonli farmoni bilan belgilangan sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va farmatsevtika sohasini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazkur farmonda bolalar uchun zarur dori vositalarining ta’minotini yaxshilash, ularning narxini iqtisodiy jihatdan maqbullashtirish va mahalliy farmatsevtika ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash masalalari alohida ta’kidlangan. Bundan tashqari, ushbu dissertatsiya sog‘liqni saqlash

tashkilotlari uchun pediatriyada dori vositalarining ta'minot jarayonlarini boshqarish bo'yicha qo'llanma sifatida foydalanilishi mumkin.

**Xulosa:** Bu holat ta'minotdagи uzilishlar xavfini oshirib, narxlarning yuqorilashiga olib kelmoqda. Mahalliy ishlab chiqarish yetarli darajada rivojlanmagan. Pediatriya uchun mo'ljallangan dori vositalarini ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar soni juda kam. Ko'pchilik farmatsevtika korxonalari faqat umumiy qo'llanishdagi dori vositalarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Dori vositalarining narxi va sifati bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Mahalliy farmatsevtika ishlab chiqaruvchilarining pediatriya bozoridagi ulushini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalari ishlab chiqildi. Shuningdek, sog'lijni saqlash tizimida davlat-xususiy sheriklik asosida pediatrik dori vositalarini ta'minlashga doir yangi model taklif etildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nizomiddinovich T. F. et al. EXPERIMENTAL MYOCARDIAL INFARCTION LDH BILAN CORRECTION OF NATHIJALARI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'mni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 6. – №. 1. – C. 63-68.
2. Nizomiddinovich T. F. et al. QON TOMIR KASALIKLARIDA ENOSNING O'RNI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 6. – №. 1. – C. 56-62.
3. Sh, Xushnazarov Z., L. Kenjayeva, and F. N. Toshboyev. "PIRRILO [2, 3-D] PIRIMIDINLARNING BIOLOGIK FAOLLIGI." TADQIQOTLAR. UZ 39.5 (2024): 30-35.
4. Sh X. Z., Toshboyev F. N., Izatullayev S. A. PIRIMIDIN HALQASI ISHTIROKIDA SINTEZ VA PIRIMIDINNING BIOLOGIK FAOLLIGI //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 38. – №. 5. – C. 28-34.

5. Toshboyev F. N., Tashanov O. S., Izatullayev S. A. Oziqa tarkibidagi spirlarni oksidlanish jarayonini matematik modilashtirish orqali xisoblash //golden brain. – 2023. – Т. 1. – №. 28. – С. 117-120.
6. Toshboyev F. N., Iskandar o'g'li M. S., Fayzullo o'g'li S. S. XITOZAN VA SUT ZARDOBI BILAN OZIQLANTIRILGAN BROYLER JO'JALARINING BIOKIMYOVIY KO'RSATKICHLARI //Ta'lism innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 14. – №. 1. – С. 78-80.
7. Toshboyev F. N. et al. SELECTIVITY OF YKS CATALYZATION IN THE SYNTHESIS OF VINYL ACETATE FROM ETHYLENE AND ACETIC ACID //World of Scientific news in Science. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 31-35.
8. Nizomiddinovich T. F., Abdimannonovich I. S., Zoirovich A. J. Of organic substances by thin layer chromatographic method //Ta'lism innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 14. – №. 1. – С. 70-72.
9. Toshboyev F. N., Bobokulova S. A., Suyunova M. O. Synthesis of vinyl acetate from acetylene with the participation of a nanocatalyst and study of its kinetics //World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 11-18.
10. Тошбоев Ф. Н., Ахмадов Д. З., Эшанкулов З. А. Динамика нитрергической системы при гиперхолестеринемии //Ta'lism innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 14. – №. 1. – С. 73-77.
11. Baykulov A. K., Toshboyev F. N., Akhmadov J. Z. BIOCHEMICAL AND PHYSIOLOGICAL CHANGES IN PARASITE PARAMETERS IN THE HOST-PARASITE RELATIONSHIP //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 257-262.
12. Xudoyerberdiyev I. I. et al. Etilen va sirka kislotadan vinilasetat olinishi jarayonining fizik-kimyoviy asoslari //Zamonaviy fan va ta'lism yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 59-62.
13. Toshboyev F. N., Akhmadov J. Z., Eshonqulov Z. A. ETHYLENE OXYACETYLATION REACTION KINETICS LEARN //Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 253-256.

14. Тошбоев Ф. Н., Анваров Т. О., Изатуллаев С. А. ОПРЕДЕЛЕНИЕ РН СРЕДЫ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ВЕЩЕСТВ ПОТЕНЦИОМЕТРИЧЕСКИМ МЕТОДОМ //World of Scientific news in Science. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 166-169.
15. Baxodirovich S. S., Nizomiddinovich T. F., Ergashboevna E. M. GAZ ARALASHMALARINI NAZORAT QILISHNING TERMOKATALITIK USULI //Journal of Universal Science Research. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 276-281.
16. Байкулов А. К., Муртазаева Н. К., Тошбоев Ф. Н. ДИНАМИКА ВЛИЯНИЯ ЛАКТАТДЕГИДРОГЕНАЗЫ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ИНФАРКТЕ МИОКАРДА //World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 244-251.